
Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi

Bugun, 15-iyun kuni O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi, O’zbekiston Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamkorligida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2019-2028-yillar davrida O’zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan matbuot anjumani o’tkazildi.



Ta’kidlanganidek, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o’simliklarning kamyob va yo’qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.





Mazkur yo’nalishda Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida qisqacha tanishtirib o’tildi:

• Zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (GIS-texnologiyalar) asosida bioxilma-xillik o’simliklarning davlat monitoringi va davlat kadastri yuritilib, hozirgi kunda Jizzax, Navoiy, Samarqand, Kashqadaryo va Buxoro viloyatlarining noyob va yo’qolib ketish xavfi ostidagi o’simliklarning kadastri monografiyasi nashr etildi.

• To’r tizimli metod asosida O’zbekiston Respublikasining florasi kompleks o’rganilib O’zbekiston florasi monografiyasining yangi tahrirdagi 3 jildi nashr etildi va 4-5 jildlari nashr uchun tayyorlandi.

• Botanika instituti Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan DNK-shtrix-kodlash texnologiyasidan foydalangan holda xozirgacha O’zbekistonning noyob va yo’qolib ketish xavfi ostida bo’lgan 5 turkumga mansub 41 o’simlik turlari 66 ta namunada barkodlandi va Genbank (NCBI) tizimiga joylandi hamda ularni xalqaro identifikatsiya qilish imkonini beruvchi tegishli raqamlar olindi.

Fanlar akademiyasi va boshqa bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda Qizil kitobni yuritish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi hayvonot olami bo’yicha Qizil kitobning noyob va yo’qolib ketish xavfi ostida turgan turlari ro’yxatiga 209 ta tur, shundan 21 ta tur qo’shimcha ravishda kiritildi va 12 ta turning maqomi o’zgartirildi.